

Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi.

1- boshlovchi:

Assalomu-alaykum, hurmatli mehmonlar, aziz o'quvchilar. Bugun biz shoh va shoir, davlat arbobi xamda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 534 yil to'lganligi munosabati bilan o'tkazilayotgan ushbu bayram kechasiga to'plandik.

2- boshlovchi:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim ,

Kunglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonne dilofgor ko'rmadim,

Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

1- boshlovchi:

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,

Bu ikki ish tuyassar bo'lmasa olamda,

Boshini olib bir sarig'a ketsa kishi.

Bugungi tadbirimizni ochib berish uchun so'z navbatini matabimiz direktori Nuraddin Sadullayevichga bersak .Marhamat

2- boshlovchi

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Andijonda Umarshayx Mirzo xonardonida tavallud topdi. Saroyda shahzodalarga xos munosib ta'lim - tarbiya olgan Bobur otasi vafotidan so'ng 12 yoshida taxtga o'tirdi.

1- boshlovchi

Bobur toj - taxt uchun bo'lgan urushlar tufayli Andijondan chiqib ketib, Hindistonda buyuk boburiylar sulolasiga asos soldi. Hindistonda qudratli sultanat o'rnatgan, davlatning gullab- yashnashida katta hissa qo'shgan sevimli shoirimiz 1530 yil 26-dekabr kuni Agra shahrida olamdan o'tdi.

2- boshlovchi

U o'z umri davomida "Boburnoma", "Mubayyin-al -zakot" (Zakot bayoni),"Xatti Boburi", "Xarb ishi" kabi ko'plab nasriy va she'riy asarlar yaratdi.

1- boshlovchi

Hozir o'quvchilarimiz tomonidan yod olingen Bobur ruboiylaridan tinglaymiz.
(Sahnaga 5ta o'quvchi zarli chopon va do'ppilarda chiqadilar.)

1- o'quvchi , M.Sarvinoz

Davron meni o'tkardi saru samondin

Ayirdi meni bir yo'la xoni mondin.

Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,

Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

2- o'quvchi Munira

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,

Shod etmas emish kishini g'urbatda kishi.

Ko'nglim bu g'ariblig'da shod o'ljadi oh,

G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

Tole yo'g'i boshimg'a balolig' bo'ldi,
Har neniki ayladim hatolig' bo'ldi,
O'z yurtni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab netayin, bu ne yuz qarolig' bo'ldi.

4

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyattingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx bu durur, tengri uchun,
Bir – birini necha kuni g'animat tutungiz.

5

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

6

Sen gulsenu men haqir bulbuldirmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldirmen.

Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.

7

Har kimki vafo qilsa vafo topgusidur,
Har kimki jafo qilsa jafo topgusidur,
Yaxshi kishi yomonlig' ko'rmagay hargiz,
Ha kimki yomon bo'lsa jazo topgusidur!

8

Ko'pdin berikim yor-u diyormi yo'qtur,
Bir lahma-yu, bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sorig'a o'z ixtiyorim birla,
Lekin borarimda ixtiyorim yo'qtur.

9

Bu xasta ko'ngil erdi, visoling ila xush,
Jonim ham erur sening jamoling ila xush.
Hijron g'ami garchi asm noxushdir,
Fikring bila shodman, xayoling bila xush
Sarvinozim qo'shig'iga raqsi

1- boshlovchi:

Bobur Hindistonda shoh bo'lsada, bir umr Vatanim, uning tuprog'ini bag'rikeng odamlarini sog'inib yashadi.

2- boshlovchi:

U o'zga yurt toji taxtidan Vataning bir siqim tuprog'ini afzal deb bildi. Shoir g'azallarida, ruboiylarida armonga aylangan Vatan sog'inchini his etamiz.

(Maktab o'quvchilari tomonidan kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi.)

Mayin musiqa yangraydi.

Bobur taxtda o'tiribdi. Atrofdagi uch-to'rt mulozimlari bilan mamlakatdagi siyosiy axvol, soliqlar to'g'risida suhbatlashmoqda. Shunda soqchi kelib bir kishi Boburning huzuriga kirish uchun izn so'rayotganini aytadi.

Bobur: -Ruxsat, huzurimga olib kelingiz. (Notanish kishi qo'lida qovun bilan kirib keladi va ta'zim qiladi.)

Kishi: Assalomu alaykum, hazratim. (Ta'zim keltiradi.) Men savdogarman. Sizning huzuringizga kelishimdan maqsad Andijondan keltirilgan qovundan olib keldim. Ona yurtimizdan olib kelingan bu ne'matdan totib ko'ring, hazratim. Zora sog'inchingizga

malham bo'lsa. (Bobur sekin taxtdan tushib kelib titroq qo'llari bilan qovunni oladi. Uni uzoq hidlab yuz-ko'zlariga surtadi va o'ta g'amgin holda gapiradi.)

Bobur: Rahmat, sizga. Vatanimning xush bo'yalarini olib kelgan bu qovunda Andijon shamoli-yu, musaffo havosini, tabarruk tuprog'ining isini, beqiyos ekinzorlarining go'zalligini, bolaligim o'tgan go'zal vodiylar manzarasi, dilkash xalqimning nafasini, ota-onam mehrini tuydim. Kindik qonim to'kilgan Vatan -mening beshigim, sog'inchim va tiganmas armonlarimdir.

Tole yo'qki joniimga balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatoliq bo'ldi.

O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo, rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Samarqandning go'zali qo'shig'i

2-boshlovchi: Endi navbatni buyuk mutafakkirlarning Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi fikrlariga qaratsak .Marhamat.

Javohirlal Neru, Rajiv Gandhi, Erskin, Holden, Veselovskiy

Ozodbek Nazarbekovning Sev qo'shig'i

1-boshlovchi: Adabiyot kechasini bahru-baytsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan keling -hozir navbatni 4-q sinf o'quvchilari yod olingen Bobur ijodidan sarangan g'azallar, ruboilyar va tuyuqlardan tinglasak. Marhamat

"Yaxshilik" "g'azali", "Qoldimu?" "g'azali", "Topmadim", "Xazon yaprog'i yanglig" "g'azali", "Topmasman" "g'azali", "Lola" "g'azali"

1-o'quvchi Anora

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.
Meynon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzung hur,
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

2-o'quvchi Shahnoza

Tafohur ko'zum, ko'nglum qilurlar magar bordur,
Ko'zunga ko'ngul vola, yuzunga ko'zum hayron.
Hayron ko'zum yuzunga, vola ko'ngul ko'zunga,
Bordur magar, qilurlar ko'nglum, ko'zum tafohur.

3-

Tafakkur necha qilsam topilmas sening misling,

Pariydek seni ko'rdum emassen magar inson.
Inson magar emassen, ko'rdum seni pariydek,
Misling sening topilmas qilsam necha tafakkur.

4-Behruz

Balodur manga hajring, davodur manga vasling,
Itobing manga ofat, hadising manga darmon.
Darmon manga hadising, ofat manga itobing,
Vasling manda davodur, hajring manga balodur.

5-Sayyora

Chu Bobur sanga quldur, nazar qil anga zinhor,
Topilmas yana bir qul aningdek sanga, ey jon.
Ey jon sanga aningdek, bir qul yana topilmas,
Zinhor anga nazar qil, quldur sanga chu Bobur

6-Ro'zaxon

Har ishda shitob qilmagaysan,
Bu demak murodga yetmagaysan.

7 Shoira o'quvchi

Kishi yuz so'z birla ko'nglin olur.

Birovnikim birovdin ko'ngil qolur,

5- o'quvchi

Necha nafing'a bo'lursan tobe,

Necha umringni qilursan zoye.

O'ynayli qo'shig'i raqsi (SanjARBek,Jasurbek,Behruzbek,Gulruhsor)

Фақат... Бобур йиғлаган

Бошимга урайинми ўтар дунё шонини,
Ў, куйган ўтларимда қайтадан куяйинми?
Гулдан балдоқлар тақсан жононларнинг жонини
Бир сиқим тупроқ қилган дунёни суяйинми?

Менинг карвоним ҳорғин, кунботарга оғмоқда,
Элас-элас келмоқда құнғироқлар жаранги.
Гарчанд бошим устида ой нурлари ёғмоқда,
Холим шу қадар забун, ҳолим шу қадар тангки...

Йўқ, эзғин күнглимдайин ёришиб борар осмон,

Ёруғ осмон остида, болажонлар, унгайсиз!
Фақат... Бобур йиғлаган... "Бу жаҳонга сиғмасмен",
Шундан у йўқ жаҳонга сиғиш гоҳо ўнғайсиз.

Бошимга урайинми ўтар дунё шонини.

Anjanchasiga qo'shig'iga yigitlar raqs

1-boshlovchi: Buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyati o'zining nodir va badiiy qimmati bilan ham adabiyotimizda katta o'rinn egallagan.

2-boshlovchi: Ha, Bobur iymoni butun inson bo'lgan, ana shu e'tiqod, uning o'z iqroriga ko'ra, uni doimo turli balo-qazolardan muhofaza qilgan.

Dunyoning tilagi, samari ham biz,

Aql ko'zin qarosi, javxari ham biz.

To'garak jahonni uzuk deb bilsak

Shaksiz, uning ko'zi, gavhari ham biz.

Ozodbek Nazarbekning" Shaydo qilibsen"g'azali

1- boshlovchi: Mumtoz adabiyotimiz, tarixiy asarlarimizni mutolaa qilishdan maqsadimiz undagi zarra-zarra ganjinlarni bugungi yoshlارимиз ongiga yetkazib, hayotda to'g'ri, jamiyat uchun manfaatli yo'lga kirishlariga ko'maklashishdir.

Hurmatli mehmonlar, aziz o'quvchilar bugungi kechamizni Zahiriddin Muhammad Boburning so'zlari bilan yakunlasak.

Unda kishi umrini mazmunli, barakali, o'zidan keyin dog' va malomat qoldirmasdan yashashi, bu zaminda yashashdan maqsad, odamlarni ezgulikka yetaklash garovi bor. Unga amal qilish hammamizga nasib etsin:

Bormu erkin hech nima olamda
hijrondin yamon.

Har nekim ondin yamonroqdur,

budur ondin yamon.

2-boshlovchi:

Tadbirimiz so'ngida yana so'z navbatini mакtabimiz direktori Nuraddin Sadullayevichga bersak.